



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No3
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, aprel-may.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukaramova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BUXGALTERIYA VA EKOLOGIK HISOBOT (ESG HISOBOTLARI).....	21
Abdulkarimov Qamariddin Isroiljon o'g'li, Abdurashidov Faxriddin Fazliddin o'g'li, Beknazarov Zafarjon Ergachevich	
YASHIL INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISH – BARQAROR IQTISODIY O'SISHNING ASOSIY YO'NALISHI	26
Yarboeva Farida Ulug'bek qizi, Yoqubova Zilola To'ra qizi	
RAQAMLI SOLIQ NAZORATINING BUXGALTERIYA TIZIMIGA TA'SIRI	30
Abdulaxatov Mirkomil O'rol o'g'li, Rustamov Davron Rustamovich	
ИННОВАЦИОННЫЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	34
Насиров Дилшод Фархадович, Халманова Шахзода, Кенесбаева Азиза	
O'ZBEKISTON TURIZM TIZIMIDA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	39
Normurodov X.E., Abdurazakova Farangis Dilshod qizi	
СОВРЕМЕННЫЕ ШКОЛЫ НАУКИ УПРАВЛЕНИЯ И ИХ ОСНОВНЫЕ ИДЕИ.....	44
Латипов Ашур Али Рустам ўғли, Джамолова Хилола Исмаиллаевна	
O'ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA MOSLASHTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	50
Qosimova Fazilat Sherzod qizi, Shermuxamedov Bexzodjon Usmonovich	
MARKAZIY BANK RAQAMLI VALYUTALARI VA GLOBAL PUL TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	57
Jumanova Shaxlo Boxodir qizi, Shovkatov Nodirjon Ne'matjon o'g'li	
RAQOBAT VA MONOPOLIYA SHAROITIDA BOZOR SAMARADORLIGI HAMDA IQTISODIY RIVOJLANISH OMILLARI	62
Yo'ldashaliyev Muxammadaziz Xabibulla o'g'li, Yoqubova Zilola Tura qizi	
ИНВЕСТИЦИИ В ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОЙ ЭКОНОМИКИ	68
Насиров Дилшод Фархадович, Тохинова Азиза Олимжоновна, Исокулова Хуснора алохиддиновна	
FRANCHAYZING FAOLIYATIDA RAQAMLI MARKETING VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	74
Xodjayev Anvar Rasulovich, Nasimov Dilshodbek Hotam o'g'li	
AGROINDUSTRIAL BIOMASSANING IKKILAMCHI UTILIZATSIYASI – YOPIQ SIKL IQTISODIY MODELINING INFRATUZILMAVIY TAYANCHI: IQTISODIY-EKOLOGIK MEZONLAR VA MILLIY AMALIYOT.....	80
Kadirova Maraljon Matyakubovna, Eshbekov Murodjon Uktamovich	
ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING MOLİYAVIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI.....	87
Alimov Umid Xamid o'g'li, Rustamov Maqsud Suvonqulovich	
RAQOBATLASHMAGAN BOZOR SHAROITIDA NARX BELGILASH TAMOYILLARI.....	92
G'aniyev Fayzbek Abduxamid o'g'li, Jumanazarov Og'abek Ahmadjon o'g'li, Shukurov Tohirjon Izzatullo o'g'li	
DEVELOPMENT OF LEGAL REGULATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE	104
Akhrorova Munavvar Farkhod kizi, Abdalimov Orzubek Tuychibek o'g'li, Samiyev Damir Ahmad o'g'li, Rakhmonov Umrzoq Otaboy o'g'li	



KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA BANK KREDITLARINING AHAMIYATI.....	112
Ubaydulloyeva Rayhona Fahriddin qizi, F.U.Umarov	
O'ZBEKISTONDA TURIZM XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASINI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	119
Raxmonova Sabina Navro'z qizi, Nazar Nazarov G'ulomovich	
TARMOQ TUZILMASINI SHAKLLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING AHAMIYATI	124
Samadova Solik qizi, Normurodov Husan	
TIJORAT BANKLARINING RAQAMLI XIZMATLARIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	130
Tillayev Xurshidjon Sulaymon o'g'li, Karimov Umrbek Javlonbek o'g'li	
ISLOM MOLIYASINI O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI.....	137
Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.	
XALQARO VA MILLIY BUXGALTERIYADA NOMODDIY AKTIVLARNI HISOBGA Olish, BAHOLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	141
Axmetova Nasiba Axmetovna, Mavlanov Normo'min Normamatovich	
URBANIZATSIYA SHAROITIDA TRANSPORT MARKETINGINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	147
Iskandarov Qudrat Shuxratovich, Ataniyazova Zarina Niyetbay qizi	
IQTISODIY ATAMALARINING O'ZBEK TILIDA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI.....	154
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna, Salamova Oliya	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING HAJMI, OMILLARI VA UNI KAMAYTIRISH YO'LLARI.....	158
Tohirova Gulnoza Zokirovna, Tillayev Xurshidjon Sulaymon o'g'li	
RAQAMLI BANK TIZIMLARI VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR (FINTECH)NING AN'ANAVIY BANKLARGA TA'SIRI.....	164
Shermuxe'dov Bexzodjon Usmonovich, Qosimova Fazilat Sherzod qizi, Abdumalikova Busalima Abduvali qizi	
SUN'IY INTELLEKTNING AXBOROT BOZORIGA TA'SIRI: MAHSULOT VA MEHNAT BOZORIDAGI O'ZGARISHLAR.....	170
Mo'y'dinjonova Durdonaxon Ilhomjon qizi, Ismanov Ibrohim Nabiye'vich	
ICHKI AUDIT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO STANDARTLAR VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA.....	175
Axmedov Xasan Ruzibaye'vich, Ruzibaye'va Karima Shavkat qizi, Abdumalikova Busalima Abduvali qizi	
SARATON KASALLIGIDA PSIXOLOGIK REABILITATSIYA: "5 OLAM" MODELINI KENGAYTIRISH VA AMALIY QO'LLASH	182
Salaye'va Laylo Shavkatovna, Toshtemirov Doston Tohirjon o'g'li	
THE CHALLENGES OF MANAGING CROSS-FUNCTIONAL TEAMS IN PHARMACEUTICAL PROJECTS	187
Murodova Feruzakhon Talatovna	
GREEN ECONOMY AND GREEN INVESTMENT: SUSTAINABLE AS A MAIN FACTOR OF ECONOMIC GROWTH.....	194
Tursinov A.J., Jalgasbaeva J.A., Axmetova U.M.	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK MENEJMENTNING AHAMIYATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	199
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich, Dilmurodov Komiljon Ahmad o'g'li	
O'ZBEK TILINING TARIXIY TARAQQIYOT BOSQICHLARI.....	204
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna, Baxronov Timur Rustamovich	



ZAMONAVIY TASHKILOTLARDA STRATEGIK BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	208
Makhmudov Sunnatjon Abdujabbor o'g'li, Ashurova Jasmina Jo'ra qizi	
O'ZBEKISTONDA ATROF-MUHIT IQTISODIYOTI VA BARQAROR RIVOJLANISH MASALALARI	213
Boltayeva Sh.B., Hayitova Charos, Latipova Jasmina	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	216
Izzatillayeva Munisabonu Ikromjon qizi, Yangiboyev Sirojddin Juramurodivich	
O'ZBEKISTON EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA DIVERSIFIKATSIYANING ROLI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	220
Ashurova Nilufar Yuldosh qizi, Xurshidjon Tillayev Sulaymon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH	225
Iskenderov Axmet Maksetbaevich, Irisaliyeva Kamola Otabekovna	
MUQIMIY IJODIDA SAYOHAT MOTIVLARI VA ULARNING ADABIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI	228
Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi, Muxitdinova Muxlisa Sadriddinovna	



MUQIMIY IJODIDA SAYOHAT MOTIVLARI VA ULARNING ADABIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Turizm fakulteti 2-bosqich talabasi

E-mail: erkaboyevajasmina2007@gmail.com

Muxitdinova Muxlisa Sadriddinovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

O'zbek va rus tillari kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Muqimiy ijodidagi sayohat motivining badiiy-falsafiy mohiyati "Sayohatnoma" asari asosida tahlil qilinadi. Sayohat motivi geografik harakat bilan bir qatorda shoirning ichki dunyosi va ijtimoiy ongini ifodalovchi poetik vosita sifatida yoritiladi. Uning realizm bilan bog'liqligi, ijtimoiy voqelikni aks ettirishdagi o'rni hamda adabiy turizm bilan aloqasi ilmiy jihatdan ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari Muqimiy ijodi adabiy turizm va madaniy merosni anglashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Muqimiy, sayohat motivi, "Sayohatnoma", realizm, ijtimoiy voqelik, adabiy turizm, poetik tafakkur, madaniy meros.

Abstract: This article analyzes the artistic and philosophical essence of the travel motif in the works of Muqimiy based on the work "Sayohatnoma." The travel motif is interpreted not only as a geographical movement but also as a poetic means of expressing the poet's inner world and social consciousness. Its relationship with realism, its role in reflecting social reality, and its connection with literary tourism are examined from a scientific perspective. The findings demonstrate that Muqimiy's tvorчество serves as an important theoretical foundation for understanding literary tourism and cultural heritage.

Key words: Muqimiy, travel motif, "Sayohatnoma," realism, social reality, literary tourism, poetic thinking, cultural heritage.

Аннотация: В данной статье художественно-философская сущность мотива путешествия в творчестве Мукими анализируется на основе произведения «Саёхатнома». Мотив путешествия рассматривается не только как географическое перемещение, но и как поэтическое средство выражения внутреннего мира поэта и его общественного сознания. Научно освещаются его связь с реализмом, роль в отражении социальной действительности, а также взаимосвязь с литературным туризмом. Результаты исследования показывают, что творчество Мукими служит важной теоретической основой для осмысления литературного туризма и культурного наследия.

Ключевые слова: Мукими, мотив путешествия, «Саёхатнома», реализм, социальная действительность, литературный туризм, поэтическое мышление, культурное наследие.

KIRISH

O'zbek mumtoz adabiyoti xalqning tarixiy tafakkuri, madaniy qadriyatlari hamda ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi muhim ma'naviy manbalardan biri hisoblanadi. Bu meros nafaqat badiiy-estetik qiymati bilan, balki jamiyat taraqqiyoti, tarixiy makon va madaniy muhitni o'rganishda ham katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. XIX asr o'zbek adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri bo'lgan Muqimiy ijodi ham ana shunday ko'p qirrali mazmuni bilan alohida e'tiborga loyiqdir. Shoir asarlarida ijtimoiy hayot manzaralari, xalq turmushi, shahar va qishloq muhitiga xos xususiyatlar, shuningdek, turli hududlar bilan bog'liq kuzatuv va taassurotlar o'zining badiiy ifodasini topgan.



Muqimiy ijodida uchraydigan sayohat motivlari shoirning hayotiy kuzatuvlari hamda turli hududlarga qilgan safarlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, uning mashhur asarlaridan biri bo'lgan "Sayohatnoma"da shoir o'z safarlari davomida uchratgan manzara va voqeliklarni tasvirlash orqali muayyan hududlarning ijtimoiy-madaniy hayotini badiiy talqin etadi. Bu tasvirlar nafaqat adabiy jihatdan, balki tarixiy-geografik hamda madaniy manba sifatida ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Chunki bunday asarlar orqali o'sha davr shahar va hududlarining turmush tarzi, muhiti hamda muomala madaniyati haqida muayyan tasavvur hosil qilish mumkin.

Bugungi kunda turizmni rivojlantirish masalasi O'zbekiston Respublikasi siyosatida ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Xususan, 2025-yil 15-maydagi PF-87-sonli Farmon bilan O'zbekistonda 2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini ko'paytirish va turizm xizmatlari sifatini oshirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar belgilandi [1]. Shu bilan birga, 2025-yil 19-noyabrdagi PQ-348-son qaror orqali Turizm qo'mitasi faoliyati yangi bosqichda tashkil etilib, mamlakatning madaniy, tarixiy va adabiy merosini turizm resursi sifatida rivojlantirish vazifasi belgilandi [2]. Ushbu hujjatlar mamlakat turizm strategiyasining zamonaviy kontekstini yaratadi hamda Muqimiy ijodidagi sayohat motivlarini amaliy turizm bilan bog'lashning ilmiy asosini mustahkamlaydi.

Shuningdek, zamonaviy turizm tadqiqotlarida adabiy meros bilan bog'liq sayohat yo'nalishlarini o'rganish tobora dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Xususan, adabiy shaxslar faoliyati yoki adabiy asarlarda tasvirlangan makonlar asosida shakllanuvchi adabiy turizm yo'nalishi turizm industriyasining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Bu jarayonda yozuvchi va shoirlarning ijodiy merosi, ular bilan bog'liq tarixiy joylar hamda asarlarda tasvirlangan hududlar turistik resurs sifatida talqin etiladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Muqimiy ijodida aks etgan sayohat motivlari ham o'zbek adabiy merosining turizm bilan bog'liq jihatlari o'rganishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi Muqimiy ijodida uchraydigan sayohat motivlarini tahlil qilish hamda ularning adabiy turizmni rivojlantirishdagi ilmiy va amaliy ahamiyatini aniqlashdan iborat. Shu bilan birga, shoir asarlarida tasvirlangan makon va hududlarning madaniy hamda tarixiy qiymatini turizm nuqtayi nazaridan baholash ham ushbu tadqiqotning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv orqali o'zbek mumtoz adabiy merosini zamonaviy turizm tadqiqotlari bilan uyg'un holda o'rganish imkoniyati yuzaga keladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy tadqiqotlarda adabiyot va turizmni o'zaro bog'lovchi konsepsiya sifatida adabiy turizm konsepsiyasi o'rganiladi. Adabiy turizm turistik tajribani adabiyot bilan integratsiya qilishga qaratilgan yo'nalish bo'lib, yozuvchi yoki shoirning ijodiy merosi bilan bog'liq joylar orqali sayyohlarning ma'rifiy va madaniy tajribalarini shakllantiradi. Xususan, xalqaro tadqiqotlarda adabiy turizm konsepsiyasi adabiyotshunoslik va turizm tadqiqotlarini birlashtiruvchi nuqtayi nazar sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuv sayohat motivlarining nafaqat geografik, balki madaniy-estetik ahamiyatini ham tahlil qilish imkonini beradi.

O'zbekistonda adabiy turizm konsepsiyasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar soni oshib bormoqda. Masalan, Qo'qon shahrining UNESCOning "Ijodkor shaharlar" tarmog'iga kiritilishi orqali adabiy turizmni rivojlantirishning amaliy jihatlari o'rganilgan. Mazkur ilmiy maqolalarda adabiy meros obyektlari va shahar madaniy muhiti bilan bog'liq turizm salohiyati ilmiy asosda tahlil qilingan [3]. Ushbu tadqiqotlar adabiy turizmni faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki uni madaniy strategiya va turistik marshrutlar darajasida rivojlantirish mumkinligini ko'rsatadi.

Muqimiy ijodi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda asosan "Sayohatnoma" asari atroflicha tahlil etilgan. Ergashev A. va boshqalarning "Muqimiy sayohatnomalarida geografik joylar tasviri" nomli maqolasida shoir asarida tasvirlangan Qo'qon, Farg'ona va Isfara kabi geografik hududlarning badiiy tasviri tahlil qilinadi. Unda joy nomlari va ularning badiiy kontekstdagi roli yoritilib, shu orqali Muqimiyning adabiy sayohat motivlariga chuqur nazar tashlanadi. Mazkur tadqiqot Muqimiy ijodidagi sayohat motivlarini adabiy-geografik kontekstda o'rganishning muhim ilmiy manbasi sifatida xizmat qiladi [4].

Bundan tashqari, Muqimiy "Sayohatnoma" asarining tasviriy-ijtimoiy jihatlari ham ilmiy adabiyotlarda yoritilgan. Masalan, Safarova E.ning "Muqimiy sayohatnomasida tasvirlangan ijtimoiy-siyosiy holat" nomli tadqiqotida asarda uchraydigan ijtimoiy va adabiy vaziyatlar hamda badiiy obrazlarning jamiyat hayoti bilan bog'liq jihatlari tahlil qilinadi [5]. Bu tahlillar sayohat motivlarini faqat geografik yo'nalishlar bilan cheklab qo'ymasdan, Muqimiy ijodining ijtimoiy-madaniy jihatlari bilan bog'liq holda o'rganish imkonini beradi. Adabiy sayohat motivlari bu yerda hudud tasvirlari orqali qahramon tajribasiga asoslangan holda jamiyat haqidagi tasavvurlarni ham ifodalaydi.

Q. Pardayevning "Muqimiy lirik asarlarining matniy-qiyosiy tahlili" nomli tadqiqotida esa Muqimiy lirik merosining matniy xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilingan. Olim "Sayohatnoma" asari orqali shoirning safar davomida kuzatgan ijtimoiy muhit, xalq turmushi va hududiy hayot tasvirlarini yoritib beradi. Mazkur qarashlar Muqimiy ijodidagi sayohat motivlarini adabiy turizm hamda madaniy makonlar bilan bog'liq holda tadqiq etishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi [6].



Xususan, M. Muxiddinova tadqiqotida Muqimiy asarlarining badiiy-estetik mohiyati hamda Qo'qon adabiy muhitidagi o'rni yoritilgan. Muallif shoir lirikasidagi obrazlilik va hayotiy tasvirlarning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatini ochib beradi. Mazkur ilmiy qarashlar Muqimiy ijodidagi sayohat bilan bog'liq poetik tasvirlarni madaniy makon va adabiy meros sifatida baholashda muhim ahamiyat kasb etadi [7].

Shuningdek, adabiy kontekstda Muqimiy ijodi bo'yicha boshqa tahliliy maqolalar ham mavjud bo'lib, ularda shoir ijodining o'ziga xos an'analari, uslubiy xususiyatlari hamda "Sayohatnoma" janrining umumiy xususiyatlari o'rganiladi [8]. Ushbu tadqiqotlar Muqimiy ijodidagi sayohat motivlarini shakllantiruvchi badiiy vositalarni aniqlash imkonini beradi hamda adabiy turizm nuqtayi nazaridan muhim ilmiy poydevor yaratadi.

Yuqoridagi manbalar shuni ko'rsatadiki, Muqimiy ijodidagi sayohat motivlari adabiy tahlil kontekstida yetarlicha o'rganilgan bo'lib, ularni zamonaviy adabiy turizm konsepsiyasi bilan bog'lash ilmiy jamoatchilikda dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, Muqimiy asarlaridagi geografik hududlar, badiiy obrazlar va ijtimoiy-madaniy kontekstni o'zaro uyg'un holda o'rganish adabiy turizm salohiyatini aniqlashda muhim tahliliy manba bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot Muqimiy ijodidagi sayohat motivlarini aniqlash hamda ularning adabiy turizmni rivojlantirishdagi ahamiyatini o'rganishga qaratilgan bo'lib, adabiyotshunoslik va turizmshunoslikning integratsiyalashgan yondashuviga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida Muqimiy asarlaridagi sayohat tasvirlari kontekstual va tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Bu esa ularning davrning ijtimoiy va madaniy sharoitlari bilan bog'liqligini aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, Muqimiy ijodidagi sayohat motivlari boshqa Markaziy Osiyo adabiyotlari bilan qiyosiy jihatdan taqqoslanadi. Bu orqali ularning o'ziga xosligi hamda adabiy turizmni rivojlantirishdagi noyob roli yoritiladi. Sifat tahliliga (qualitative analysis) asoslangan yondashuv yordamida asarlardagi turizmga oid elementlar, obrazlar va geografik tasvirlar o'rganilib, ularning zamonaviy ekskursiya dasturlari hamda turistlik marshrutlarga mosligi aniqlanadi.

Natijada, tadqiqot nafaqat Muqimiy ijodining badiiy va madaniy qiymatini ochib beradi, balki undan amaliy turizm kontekstida foydalanish imkoniyatlarini ham ilmiy asosda ko'rsatadi. Mazkur yondashuv tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy jihatdan ishonchliligini ta'minlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Muqimiy ijodida sayohat motivi faqat geografik harakat emas, balki shoirning ichki dunyosi, dunyoqarashi va badiiy tafakkurini shakllantirgan murakkab poetik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Uning eng mashhur asarlaridan biri bo'lgan "Sayohatnoma" badiiy sayohat janrining xususiyatlarini, voqelik tasvirini hamda davr muhitini o'ziga xos poetik til orqali aks ettiradi. Asarda tasvirlangan holatlar ijtimoiy-siyosiy voqealar, madaniy muhit hamda inson ruhiy tajribasini chuqur anglash imkonini beradi. Badiiy matndagi sayohat tasviri Muqimiy ijodining realizm strukturasi uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi, chunki u o'quvchiga o'sha davr hayotiy kechinmalarini bevosita shoir nigohi orqali yetkazadi.

Muqimiy asarlarida sayohat motivi ikki asosiy funksiyani bajaradi. Birinchidan, u ijtimoiy haqiqatlarni ochib beradi, ya'ni shaharlar va turli maskanlardagi adabiy-siyosiy vaziyatni tasvirlaydi. Ikkinchidan, shoirning badiiy subyektiv tajribasi orqali o'quvchiga dunyoqarashdagi ichki o'zgarishlarni his etish imkoniyatini yaratadi. Masalan, "Sayohatnoma"dan olingan tasvirlar ijtimoiy qatlamlar hayoti va qadimiy urf-odatlar bilan bir qatorda Muqimiyning shaxsiy qarashlarini ham aks ettiradi.

Sayohat motivi adabiyotshunoslikda ko'pincha ijodkorning ichki va tashqi sayohati sifatida tahlil qilinadi. Ya'ni u faqat geografik harakatni emas, balki o'zgaruvchan ijtimoiy va madaniy muhitda shaxsning ma'naviy transformatsiyasini ham ifodalaydi. Mazkur uslubiy element jahon tadqiqotlarida ham keng qo'llaniladi, chunki sayohat notanish muhitni kashf etish hamda o'zini qayta anglash jarayoni sifatida talqin qilinadi (1-jadval) [9].

1-jadval. Muqimiy ijodida sayohat motivlarining indikatorlari va ularning adabiy turizmga ta'siri.

№	Motiv	Indikator	Xulosa	Turistik natija
1.	Makon	Toponimlar mavjudligi	Real hudud aks etgan	Adabiy xarita
2.	Safar	Harakat fe'llari	Dinamika ustun	Tematik marshrut
3.	Muhit	Obrazlar xilma-xilligi	Jamiyat modeli	Etnotur
4.	Tabiat	Peysaj tasvirlari	Estetik makon	Ekoturizm
5.	Ichki holat	Lirik ifodalar	Ma'naviy qatlam	Ma'naviy turizm
6.	Tarix	Tarixiy ishoralar	Xotira mavjud	Meros turizmi



Muqimiy ijodida adabiy sayohat motivining yana bir muhim jihati shundaki, u badiiy matn orqali o'quvchi bilan tarixiy voqelik o'rtasida o'ziga xos ko'prik vazifasini bajaradi. Bu jarayon nafaqat tarixiy ma'lumotlarni yetkazish, balki badiiy tafakkur vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu jihatdan sayohat motivi adabiy turizm konsepsiyasi bilan bevosita bog'lanadi, ya'ni u joy, obyekt yoki shaxs haqida xayoliy tasavvurdan tashqarida real tarixiy-madaniy kontekstni shakllantiradi [10].

Bundan tashqari, adabiy turizmni o'rganishda muhim elementlardan biri ijodkorning ijodiy izlari saqlanib qolgan geografik maskanlar hisoblanadi. Qo'qondagi Muqimiy hujra uy-muzeyi singari joylar ana shunday muhim kontakt nuqtalari bo'lib, ular orqali ham adabiyotshunoslar, ham sayyohlar Muqimiy ijodining poetik olamini bevosita his etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa adabiy turizmni ilmiy asosda rivojlantirish uchun nazariy materiallar to'plashda muhim resurs vazifasini bajaradi [11].

Shuningdek, adabiy turizm tadqiqotlarida UNESCO kabi xalqaro tashkilotlarning "Ijodkor shaharlar" tarmog'ini qo'llab-quvvatlashi adabiyot va sayohatning madaniy, iqtisodiy hamda ijtimoiy ahamiyatini mustahkamlashga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Mazkur yondashuv Muqimiy ijodining geografik maskanlar bilan bog'liqligini nafaqat adabiy, balki global madaniy nuqtayi nazardan ham tahlil qilish imkonini beradi.

Muqimiy ijodida sayohat motivlari bo'yicha olib borilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, ushbu motiv ijodning badiiy strukturasi muhim o'rin tutadi hamda adabiy turizmni rivojlantirish uchun boy konseptual poydevor vazifasini bajaradi. Muqimiy sayohatlarini tasvirolovchi matnlar nafaqat shoirning poetik dunyosini ochib beradi, balki o'quvchiga o'sha davrning ijtimoiy-madaniy muhitini chuqur his etish imkonini ham yaratadi.

Bundan kelib chiqadiki, Muqimiy ijodiga asoslangan adabiy turizm yo'nalishlari, jumladan, Qo'qondagi uy-muzeylar yoki zamonaviy adabiy marshrutlar nafaqat tarixiy va badiiy merosni targ'ib qiladi, balki o'quvchi hamda sayyohni Muqimiy ijodining dinamik poetik olamiga jalb etadi. Bu esa adabiy turizmni rivojlantirishda muhim ilmiy platforma bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shu bilan birga, Muqimiy ijodidagi sayohat motivi orqali yaratilgan poetik struktura sayohat va badiiy tajriba bilan bog'liq umumiy tushunchalarni mustahkamlab, adabiyot va turizm o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishda yangi ilmiy yo'nalishlarni yuzaga keltiradi. Bu esa nafaqat O'zbekiston adabiy merosini o'rganish, balki global adabiy turizm konsepsiyasini boyitishga ham xizmat qilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Muqimiy ijodidagi sayohat motivlari shoirning badiiy tafakkurini ifodalovchi muhim poetik vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu motiv orqali shoir o'z davrining ijtimoiy-madaniy muhitini, insoniy munosabatlarni hamda jamiyat hayotidagi jarayonlarni real hayot manzaralari asosida badiiy talqin etgan. Sayohat tasvirlari Muqimiy asarlarida faqat geografik harakatni emas, balki ijtimoiy kuzatuv, madaniy muhitni anglash va tarixiy voqelikni badiiy aks ettirish vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Shuningdek, Muqimiy ijodida uchraydigan sayohat motivlari adabiy matn bilan real geografik makon o'rtasida uzviy bog'liqlikni yuzaga keltiradi. Bu esa shoir merosining nafaqat adabiy, balki tarixiy-madaniy ahamiyatini ham oshiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Muqimiy asarlarida tasvirlangan maskanlar va sayohat yo'nalishlari adabiy turizmni rivojlantirish uchun muhim madaniy resurs vazifasini bajarishi mumkin. Shu sababli Muqimiy ijodidagi sayohat motivlarini o'rganish adabiyotshunoslik bilan bir qatorda madaniy merosni targ'ib qilish hamda adabiy turizmni rivojlantirish jarayonida muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot tahlili va natijalari asosida quyidagi istiqbolli takliflar ishlab chiqildi:

- Muqimiy hayoti va ijodi bilan bog'liq hududlar asosida maxsus adabiy turizm marshrutlarini ishlab chiqish;
- oliy ta'lim muassasalarida adabiyot va turizm integratsiyasiga bag'ishlangan fanlararo tadqiqotlarni kengaytirish;
- Muqimiy asarlaridagi sayohat tasvirlarini madaniy meros va turizm resursi sifatida ilmiy kataloglashtirish;
- Muqimiy hayoti va ijodini targ'ib qilish maqsadida adabiy festivallar, ilmiy konferensiyalar hamda madaniy tadbirlarni kengroq tashkil etish;
- Muqimiy merosi asosida adabiy turizm bo'yicha ilmiy-ommabop nashrlar va qo'llanmalar tayyorlash.

Shuningdek, Muqimiy ijodida sayohat motivlarining badiiy talqini shoirning ijtimoiy voqelikni kuzatish va uni poetik tafakkur orqali ifodalash mahoratini yaqqol namoyon etadi. Shu bois Muqimiy merosini sayohat motivlari asosida o'rganish nafaqat adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan, balki milliy madaniy merosni targ'ib etish hamda adabiy turizmni rivojlantirish jarayonida ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi "2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-7531559>



2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-348-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-7851788>
3. Kobilova Z. "Adabiy turizmni rivojlantirishda "Ijodkor shaharlar"ning o'rni" // Qo'qon universiteti xabarnomasi. – 2025. – No. 14. – B. 160–164. – DOI: 10.54613/ku.v14i.1152.
4. Ergashev A. va boshq. "Muqimiy "Sayohatnoma"larida geografik joylar tasviri" // Science Time Journal. – 2025. – Vol. 3, No. 1. – B. 59–63.
5. Safarova E., Eshmamatova R. "Muqimiy sayohatnomasida tasvirlangan ijtimoiy-siyosiy holat" // Tadqiqotlar.uz. – 2024. – Vol. 39, No. 4. – B. 134–137.
6. Pardayev Q. "Muqimiy lirik asarlarining matniiy-qiyosiy tahlili" // Oltin bitiklar – Golden Scripts. – 2019. – No. 1. – B. 23–45.
7. Muxiddinova M. "Kokand is Essential in Educational Literature: The Place of His Works" // Central Asian Journal of Theoretical and Applied Sciences. – 2021. – Vol. 2, No. 4. – B. 38–44.
8. Muhammadiyev A. "Muqimiy va Muhyi 'Sayohatnoma'larida an'ana va o'ziga xoslik" // Oltin bitiglar – Golden Scripts. – 2023. – No. 4. – B. 82–96.
9. Khamdamovna S. Y. "Comparative analysis of the interpretation of travel and its representation as a genre in travel novels in Uzbek and world literature" // American Journal of Social Sciences and Humanity Research. – 2023. – Vol. 3, No. 4. – B. 32–37. – DOI: 10.37547/ajsshr/Volume03Issue04-07.
10. Yoqubova S. "O'zbek va jahon adabiyotidagi safarnoma asarlarida safar talqini va uni janr sifatida ifodalanishining qiyosiy tahlili" // Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Vol. 2. – B. 98–106.
11. Imomaliyeva M., Tursunova N. "Tarixiy adabiy joylar va ularning adabiy turizmni rivojlantirishdagi o'rni" // University Research Base. – 2025. – B. 402–407.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

3-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
